

O‘ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING HUQUQIY ASOSLARI

Sharapova Naima Zohid qizi

JDFU Tarix fakulteti Milliy g‘oya ma‘naviyat asoslari
va huquq ta‘lim yo‘nalishi 2- kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklariga katta e‘tibor qaratilayotganligi, xalqaro miqyoslarda qabul qilinayotgan yuridik hujjatlar hamda inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar, shu maqsadda kiritilayotgan investitsiyalar va inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning barpo etilayotgani kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zi: Konstitutsiya, qonun, farmon, sud tizimi, jamiyat, davlat, huquq, taraqqiyot strategiyasi, investitsiya, ta‘lim kreditlari.

АННОТАЦИЯ

В статье уделено внимание правам и свободам человека в современном Узбекистане, международно-правовым документам и безусловной защите прав и интересов человека, реформам, направленным на формирование гражданского общества, с этой целью осуществляются инвестиции и создаются институты, защищающие права человека.

Ключевые слова: Конституция, закон, указ, судебная система, общество, государство, инвестиции, кредиты на образование.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog‘onaga olib chiqish yo‘lida “Albatta - inson, keyin - jamiyat va davlat” degan g‘oya Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirilmoqda. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf- xatarlarni yengib o‘tishga qodir bo‘lgan milliy davlatchiligimiz asoslari mustahkamlanmoqda.

Jonajon O‘zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Darhaqiqat, O‘zbekiston deb atalmish katta va inoq oilaning har bir a‘zosi qatori, biz yoshlar ham tinch va farovon zaminda yashab, mehnat qilib, ta‘lim olib kelayotganimizga shukronalar aytamiz.

Muhtaram yurtboshimiz: “Taraqqiyotga - faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi”, - deganlaridek, O‘zbekistonni jahonga Yangi O‘zbekiston qilib tanitishda birmuncha qiyinchiliklarni boshdan kechirdik . O‘zbekiston sinovli va tahlikali vaziyatlardan qahramonlarcha mehnati hamda bilimli yoshlarining sa’y - harakatlari bilan muvaffaqiyatli o‘tdi. Erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan jannatmakon diyor - Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki natijalaridir.

Jamiyat - islohotlari tashabbuskori tamoyili asosida barcha masalalar bo‘yicha xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, bamaslahat ish tutmoqda. Hozirgi paytda ma’no mazmuni inson qadri ulug‘lash ruhi bilan boyitilgan, kelajak avlodlarga munosib xizmat qiladigan, Yangi O‘zbekistonga mos bo‘lgan Konstitutsiyani har tomonlama o‘ylab shoshmasdan ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

Eng muhimi - har bir vatandoshimiz Konstitutsiyaviy islohotlarga daxldor bo‘lishi va “Bu - mening Konstitutsiyam” deb yuksak g‘urur iftixor bilan ayta olishi kerak. Inson huquqi va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning Konstitutsiyaviy majburiyati sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda sud - huquq tuzilishida adolat o‘rnatish bo‘yicha quyidagi ishlar qilinadi. Respublikamiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 29- yanvardagi “2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarni transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlarini va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida qabul qilindi. Bundan tashqari bu Konstitutsiyamizning 43-moddasida ham o‘z ifodasini topgan “Inson huquqlarini yuqori darajada ta‘minlash demokratik davlat qurishning muhim asoslaridan biri hisoblanadi”. Taraqqiyot strategiyasi eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy munosabatlarni qamrab olgan. Strategiyaning o‘n beshinchi maqsadi davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub’yektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirishga bag‘ishlandi.

Demak, sud tizimini rivojlantirishga, odil sudlovni ta‘minlashga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosatining asosiy qismiga aylanganidan dalolat beradi. O‘zbekistonda mulk va investitsiyaning himoyachisi qaysidir hokim yoki vazir emas, faqat Konstitutsiya qonun va sud bo‘ladi.

Ma’lumki, muhtaram yurtboshimizning yaqindagina Oliy Majlisga murojaatnomasi bo‘lib o‘tdi. Men o‘ttiz olti millionlik o‘zbek xalqining bir yosh fuqarosi sifatida muhtaram yurtboshimizning 2022 - yil 20 - dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasini o‘qib chiqib juda ruhlandim.

Murojaatnoma keng qamrovli olti yo‘nalishdan iborat bo‘lib 2023 - yildagi ustuvor yo‘nalishlar va vazifalar belgilab berilgan. Murojaatnomaning ikkinchi yo‘nalishi Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta‘limni qo‘llab - quvvatlashga qaratilgan.

Yurtboshimiz ta‘lim sifatini oshirish - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka - yu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligini aytib, bu borada buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Yusuf Xos Hojibning “Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi. Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”, - degan ibratli so‘zlarining keltirilishi naqadar ulug‘vorligi, ta‘lim - tarbiya jarayoniga e‘tibor qaratilayotganligining isbotidir. Shu boisdan maktablarda ta‘lim sifatini hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023 - yildagi eng asosiy vazifalardan biri bo‘lishligini ta‘kidlanadi. Yurtboshimiz so‘nggi yillarda oliygohlarimiz 2.5 barobar ko‘payib, 198 taga yetkanligini aytib, kelgusi yilda talabalari uchun imtiyozli ta‘lim kreditlariga resurslar 2 barobar ko‘paytirilishi biz talabalarining ilm - fanni chuqurroq egallashga undaydi.

Biz yoshlar bunyodkor xalqimiz bilan birga bundan ezgu ishlarni davom ettiramiz, yurtboshimizga munosib voris bo‘lishga va oldimizga qo‘ygan katta - katta marralarga albatta erishamiz. Zero: “Najot - ta‘limda, najot - tarbiyada, najot - bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki inson huquqlari rivojlanishi o‘zliksiz davom etuvchi va takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi. Shunga ko‘ra inson huquqlariga oid norma va qoidalarini har bir shaxs qalbi va ongiga singdirishi o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi va o‘z navbatida milliy o‘zlikni anglashga hamda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakillantirishga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim.

Respublika qonunlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro me‘yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish uchun yurtimizda muhim chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biz yosh bo‘lajak huquqshunos sifatida inson huquqi va erkinliklarini toptalishiga qarshi kurashishda o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi “Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan murojaatnomasi” www.prezident.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. nashr yili: 2021- yil, nashryoti: O‘zbekiston NMIU. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 43- moddasi

3. O'zbekiston Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) www.ombudsman.uz
4. "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni" <https://prezident.uz>
5. Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) www.lex.uz